



KONSTITUTSIYA MATNIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING LINGVISTIK AHAMIYATI

Sayfullayeva Fotima Baxodir qizi

Navoiy davlat universiteti

Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Telefon raqam: +998919205260

fotimasayfullayeva004@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Konstitutsiya matnining sof ilmiy uslubda bo‘lganligi bois lingvistik ekspertiza qilish zarurati yoritilgan. Konstitutsiya matnining mazmuniy va grammatik qoidalariga muvofiq kelish sharti yoritilgan. Uyushiq bo‘laklar va ayrim bog‘lovchilarning matnda qo‘llanish ahamiyati izohlangan. Lingvistik ekspertizaning bugungi kundagi ahamiyati ortib borayotganligi ning sabablari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Lingvistik ekspertiza, Konstitutsiya, lingvistik ekspertiza turlari, modda, bog‘lovchilar, uyushiq bo‘laklar.

KIRISH.

Grammatikaning leksik, morfologik va sintaktik vazifa bajarishdan tashqari ilmiy hujjatlardagi o‘rni juda muhim hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, fanlararo aloqalarning rivojlanishi, xususan, til va huquq fanlarining bir-birini taqozo qilishi, yuridik materiallarni til nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga ehtiyoj yangi yo‘nalish-lingvistik ekspertizaning shakllanishiga olib keldi. [1, 300]

Mazkur yo‘nalish ijtimoiy munosabatlarda tobora muhim amaliy vazifa bajarib bormoqda. Lingvistik ekspertiza yurisprudensiyada sud-ekspertizalari tarkibida shakllangan bo‘lib, tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalish sirasiga kiradi. Ilmiy yo‘nalish sifatida baholashimizning o‘ziga xos sabablari ham mavjud:



lingvistik ekspertizalarni ishlab chiqish va o'tkazish jarayonida lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish talab etiladi.[2, 26]

Lingvistik ekspertiza bu — loyiha matni o'zbek tilida qabul qilinsa, demak shu til qoida va talablariga muvofiqligi mutaxassis tomonidan o'rganilishi va unga adabiy til normalari asosida to'g'ri xulosa berilishi ko'zda tutiladi. Mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar davlat tilida qabul qilinadi, aynan davlat tilida ish yuritish, uning qoidalariga mos kelishi shu lingvistik ekspertiza talablariga kiradi.[3]

Lingvist-ekspert hukm chiqarmaydi, u hukmga asos bo'luvchi dalillarni tahlil qiladi.

Tadqiqotchi Kamola Musulmonova ilmiy izlanishlarida lingvistik ekspertizani quyidagi turlarga bo'lganlar:

1) qo'lyozma matnlar (shaxsiy yozishmalar, e-mail xabarlari, sms xabarnomalar); 2) hujjat matnlari; 3) konfliktli matnlar; 4) ekstremistik materiallar; 6) reklama matnlari; 7) tovar belgilari; 8) gazeta matnlari lingvistik ekspertizasi.

Xususan, hujjat matnlar guruhiga kiruvchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining lingvistik ekspertizani amalga oshirishdagi ahamiyatini yoritib o'tmoqchimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Lingvistik ekspertiza sohasi jahonda, xususan Yevropada allaqachon paydo bo'lgan va rivojlangan. Ushbu sohaning kirib kelishiga sabab sohaga bo'lgan talabning ortib borishidir.

Lingvistik ekspertizani tarkibiy qismlarga ajratishda mutaxassislar tomonida turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu soha yigirmanchi asrning so'nggi o'n yilliklarida rivojlangan. Grachev talqinida esa lingvistik ekspertiza alohida turga ajratilgan har xil turdagi tadqiqot materiallari, moddalar, mahsulotlar, shuningdek materialshunoslik deb bilan ish ko'radigan yuridik sohaning tarmoqlaridan biri.

Germaniyalik olim Jurgen Handkie fukrlariga ko'ra, lingvistik ekspertizada ikki muhim omil mavjud:

- Ovozli xabarlar identifikatsiyasi;



- Yuridik matnlar identifikatsiyasi. [4, 67]

Hozirgi kunda ekspertlarimiz jinoyat obyekti sifatida keltirilgan matndagi harf shakllarining ko'rinishi, qanday bosim ostida yozilgani va avvalgi yozgan dastxatlariga qarab, ma'lum intuitsiyaga asoslangan holda gumonlanuvchi shaxsning taxminiy portretini yaratishga harakat qilganlar. Holbuki, jahon tilshunosligida, xususan, Yevropa va AQSHda yozuv xususiyatlari bilan bir qatorda uning leksik-semantik, grammatik va uslubiy xususiyatlariga ham urg'u beriladi.[1, 305]

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

Lingvistik ekspertizani amalga oshirishimiz uchun Konstitutsiyadagi moddalarda bog'lovchilarning ahamiyati haqida fikr yuritamiz. Masalan, Konstitutsiyada va bog'lovchisining o'rni:

1-modda. O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. [6, 1]

Ushbu moddada *va bog'lovchisi* O'zbekiston Respublikasining aynan qanday davlat ekanligiga urg'u bermoqda. Bir qarashda vergul qanday vazifani bajargan bo'lsa, *va bog'lovchisi* ham shu vazifani, ya'ni tenglik munosabatini ifodalashdan tashqari ta'kid ma'nosini yam yuklaydi, bu esa ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik uchun asos vazifasini o'taydi. Shu boisdan mazkur moddada *va bog'lovchisining alohidalik va ta'kid* ma'nosi ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.[6, 3] 19-moddaning ushbu qismida uyushiq bo'laklarning har biri vergul bilan ajratilyapti. Chunki bu yerdagi uyushiq bo'laklarni birini ikkinchisidan ustun qo'yib bo'lmaydi. Unda qonunning mohiyati ham o'zgaradi. Masalan, ijtimoiy so'zidan keyin vergul qo'yilsa, modda butunlay o'zgaradi

10-modda.

O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.



Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.[6, 2]

Ushbu moddaning 1-gapidagi *va bog'lovchisi* faqat tenglikni ifodalagan.

2-gapdagi *yoki bog'lovchisi* uyushiq bo'laklardan faqat bittasi bo'lishini va qat'iy inkorni bildiriyapti.

37-modda.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar.

Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi.

[6, 7]

Ushbu gapda *bilan bog'lovchisi ko'makchi* vazifasida kelgan. Ikkala o'rinda ham ko'makchi vazifasida kelsa-da, turli xil ma'nolarni bildiradi. *O'tash bilan* birikmasida tegishlilik, qarashlilik ma'nosi bo'lsa, *qonun bilan* birikmasida vosita ma'nosi mavjud.

Lingvistik ekspertiza orqali qonun loyihasi matni tuzilishi va uning mazmunidagi ayrim uslubiy, leksik, mantiqiy hamda grammatik xatolar bartaraf etiladi. Bir so'z bilan aytganda, qonun loyihalarining yuridik-lingvistik ekspertizasi matnning sifatli bo'lishini ta'minlaydi.[5,]

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvistik ekspertiza tilshunoslik sohasiga ham, huquq sohasiga ham kerak bo'lgan yo'nalishlardan biri. Lingvistik ekspertiza orqali huquq sohasidagi shaxslarning lisoniy savodxonligini shakllantirish, qonunbuzarliklarni, jinoyatlarni oldini olish mumkin. Kichik tadqiqot ishimizda Konstitutsiyadagi uyushiq bo'laklar va ayrim bog'lovchilarning nima maqsadda qo'llanganini ochib berishga harakat qildik.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Xotamova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. www.oriens.uz
2. Til va adabiyot ta'limi. www.tilvaadabiyot.uz
3. <https://www.archive.uz/post/lingvistik-ekspertiza-qanday-jarayonni-qamrab-oladi>
4. Xudayberdiyeva G. Toshkent davlat yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali dotsenti, yuridik fanlar nomzodi. <https://zarnews.uz/>
5. Musulmonova K. Lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari tavsifi. Сўз санъати халқаро журнали | международный журнал искусство слова | international journal of word art №2 | 2021
6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)